

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik moyiyatini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashuv sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyobubova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strtegiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO'K: 1:17.022

VATANPARVARLIKNING MA'NAVİY-FALSAFIY MOHIYATI VA SHAXSNING IJTIMOİY-AXLOQIY YETUKLIGI**ДУХОВНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ПАТРИОТИЗМА И СОЦИАЛЬНО-НРАВСТВЕННАЯ ЗРЕЛОСТЬ ЛИЧНОСТИ****THE SPIRITUAL-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF PATRIOTISM AND THE SOCIAL-MORAL MATURITY OF THE INDIVIDUAL****Niyozova Shohista Nusratilloevna** 

Buxoro davlat universiteti "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy jamiyat taraqqiyotida vatanparvar shaxsning mazmuniy mohiyati va ijtimoiy qiyofasi tahlil qilinadi. Vatanparvarlikni shaxsiy va ijtimoiy qadriyat sifatida belgilaydigan asosiy ijtimoiy, psixologik, ma'naviy va fuqarolik xususiyatlari yoritiladi. Muallif vatanparvarlik identifikatsiyasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillarni o'rganib, vatanparvarlikning milliy birdamlik, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Maqolada shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasiga doir zamonaviy muammolar va vatanparvar shaxsni shakllantirishga oid nazariy yondashuvlar muhokama qilinadi.

Аннотация

В статье рассматриваются сущность и социальный облик патриотической личности в условиях современного общественного развития. Анализируются ключевые социальные, психологические, нравственные и гражданские качества, формирующие патриотизм как личностную и социальную ценность. Автор исследует социокультурные факторы, влияющие на формирование патриотической идентичности, а также подчеркивает значение патриотизма в укреплении национального единства, гражданской ответственности и социальной стабильности. В работе обсуждаются современные вызовы патриотическому воспитанию и предлагаются теоретические подходы к формированию патриотически ориентированной личности.

Abstract

This article examines the conceptual essence and social profile of a patriotic person in the context of modern societal development. The study analyzes key psychological, moral, and civic characteristics that shape patriotism as a personal and social value. The author explores the socio-cultural factors influencing the formation of patriotic identity and highlights the importance of patriotism in strengthening national cohesion, civic responsibility, and social stability. The article also discusses contemporary challenges to patriotic education and proposes theoretical approaches for fostering patriotically oriented individuals within society.

Kalit so'zlar: Vatanparvarlik, vatanparvar shaxs, fuqarolik ma'suliyati, milliy qadriyatlar, ijtimoiy qiyofa, ma'naviy tarbiya, patriotik tarbiya, ijtimoiy faollik, milliy o'zlik, mafkuraviy barqarorlik

Ключевые слова: Патриотизм, патриотическая личность, гражданская ответственность, национальные ценности, социальный облик, духовное воспитание, патриотическое воспитание, социальная активность, национальная идентичность, идеологическая устойчивость.

Key words: Patriotism, patriotic person, civic responsibility, national values, social profile, moral education, patriotic education, social engagement, national identity, ideological resilience.

KIRISH

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tahlilda "vatanparvar shaxs" kategoriyasi jamiyatning ma'naviy, madaniy va fuqarolik tizimlarida markaziy o'rin tutadigan murakkab shaxslararo va ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga olgan konsept sifatida tadqiq etiladi. Bu tushuncha faqat hissiy muhabbat yoki emosional sadoqat emas, balki insonning o'z Vatanga nisbatan ongli munosabatini, tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglagan holda, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorligini anglatadi. Falsafiy nuqtai nazardan, vatanparvar shaxsning shakllanishi ontologik o'zlik, aksiologik yo'nalish, ijtimoiy amaliy faollik va ma'naviy mas'uliyat yo'nalishlarining o'zaro uyg'unlashuvi bilan belgilanadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev, “Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir”, - deya ta'kidlaganlarining zamirida ham aslida tadqiq etilayotgan masala yotadi.

Ajdodlarimizning ma'rifiy risolalarida asosan shaxsning rivojlanishini nazarga olib, tarbiyaning nazariy va amaliy masalalari tahlil etilgan. Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Tusiy, Davvoniy, Koshifiy, Kaykovus, Sa'diy, Jomiy, Navoiylarning “Fozil odamlar shahri”, “Baxt saodatga erishuv haqida”, “Axloq haqida risola”, “Ishq risolasi”, “Qutadg'u bilig”, “Aloxi Nosiriy”, “Axloqi Jaloliy”, “Axloqi Muxsiniy”, “Hibbat-ul-xaqqoyiq”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Bo'ston”, “Mahbub-ul-qulub” kabi ta'lim va tarbiyaga oid asarlari inson shaxsini, vatanparvarlik, milliy g'urur ruhida tarbiyalashda hamda ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirish muomalalariga qaratilgan va katta ahamiyatga ega bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mazkur mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlik tushunchasi sharq mutafakkirlarining axloqiy-falsafiy qarashlarida insonning ma'naviy poydevori sifatida talqin qilinadi, zamonaviy falsafiy manbalarda esa u shaxsning ijtimoiy mas'uliyatini, fuqarolik ongining yuksalishini va milliy o'zlikni anglash jarayonini belgilovchi asosiy qadriyat sifatida yoritiladi. Ushbu mavzuni tadqiq etishda fenomenologik yondashuv orqali vatanparvarlikning ma'naviy mazmuni ochiladi, aksiologik tahlil yordamida uning qadriyat sifatidagi o'rni belgilandi, sotsiologik-qiyosiy metodlar orqali vatanparvar shaxsning axloqiy etuklik ko'rsatkichlari aniqlanadi hamda tarixiy-falsafiy tahlil asosida mazkur tushunchaning taraqqiyoti va zamonaviy talqini asoslab beriladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Antik falsafa tarixida vatanparvarlik shaxsning jamiyatga mansubligi, davlat oldidagi burchi va fuqarolik mas'uliyati bilan o'zaro bog'liqlikda ifodalangan. Aristotel, Platon va Siseron kabi mutafakkirlar o'z asarlarida mazkur masalani siyosiy-axloqiy mazmunda talqin qilib, vatanparvar shaxs qiyofasini turli falsafiy yondashuvlar asosida asoslab berganlar.

Klassik falsafa tarixida Vatanga sadoqat insoniyatning ulug' fazilatlaridan biri sifatida talqin qilingan. Arastuning “Siyosat” asarida fuqarolikka oid mas'uliyat masalasi davlatning barqaror mavjudligi uchun asosiy axloqiy-siyosiy omil sifatida talqin etiladi. Faylasuf fuqaroning jamoat ishlarida ishtirokini tasodifiy yoki epizodik harakat sifatida emas, balki siyosiy hayotning ichki zarurati, davlatning tartibotini saqlab turuvchi omil sifatida baholaydi. Uning fikricha, har bir fuqaro davlat tuzilmasiga shunchaki mansub shaxs emas, balki uning siyosiy va axloqiy ustuvorliklarini ta'minlovchi amaliy sub'yektdir. Shu nuqtai nazardan, fuqarolik burchi davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ongli va mas'uliyatli faoliyat bo'lib, u shaxsning individual manfaatlari bilan umumiy yaxshilik (eudaimonia) o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Arastu fuqaroning siyosiy faolligini nafaqat huquq, balki axloqiy burch sifatida ham baholaydi. Uning ta'kidlashicha, davlatning barqarorligi fuqarolarning o'z vazifalariga sidqidildan yondashishi, qonunlarga hurmat va jamoat manfaatlariga sadoqati bilan uzviy bog'liqdir. Shaxs shu sifatlar orqali “fazilatli fuqaro” maqomiga ega bo'ladi. Fazilat davlatning siyosiy tartiboti bilan birgalikda shakllanadi va fuqarolik ongi orqali amaliy kuchga aylanadi. Mazkur yondashuv Arastu falsafasida fuqaroning ma'naviy mas'uliyatini davlatchilikning asosiy shartlaridan biri sifatida belgilaydi. Uning fikricha, shaxsning fazilati uning Vatanga munosabati orqali namoyon bo'ladi. Shunday qilib, vatanparvarlik, avvalo, insonning o'zini muayyan siyosiy hamjamiyatning ajralmas qismi sifatida anglashi bilan bog'liq.

Platon o'zining “Davlat” va “Qonunlar” asarlarida vatanparvarlikni odil jamiyat barpo etish g'oyasi bilan bevosita bog'liqlikda talqin qiladi. Mutafakkir fikricha, haqiqiy fuqaro o'z Vatanining tartibotiga sadoqatli, aql va ma'rifatni ustuvor qadriyat sifatida tan oladigan insondir. U davlatni ezgulikka yo'nalgan ma'naviy tashkilot sifatida tadqiq qilib, fuqarolarning Vatanga xizmatini shu umumiy maqsad yo'lidagi faoliyati bilan bog'laydi. Platon nazariyasida vatanparvar shaxs davlat tuzumini, qonunlarni va jamoat tartibotini himoya qiladigan, ichki nafs yoki manfaatlarni umumiy yaxshilikka bo'ysundirgan inson qiyofasida namoyon bo'ladi.

Antik davr mutafakkirlaridan yana biri Siseron “De Officiis” (“Burchlar haqida”), “De Republica” va “De Legibus” asarlarida vatanparvarlikni burch, adolat va huquqni himoya qilish bilan bog'liq holda tadqiq etadi. Mutafakkir fikricha, insonning eng oliy burchi Vatan manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qilish, qonun ustuvorligini saqlashdir. Siseron vatanparvarlikni nafaqat ritorik mushohada, balki amaldagi fidoyilik sifatida talqin qiladi. Mutafakkir qonunlarga rioya qilib, jamoat

manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'ygan insonni haqiqiy vatanparvar shaxs sifatida baholaydi. Mazkur ma'noda, Siseron vatanparvarlikni siyosiy-huquqiy mas'uliyatga asoslangan amaliy faollik sifatida talqin qiladi.

Islom manbalarida "vatanparvarlik" mustaqil atama sifatida tadqiq etilmagan bo'lsa-da, Qur'on, sunnat, fiqh va tasavvuf manbalarining mazmunli tavsiyalari orqali mazkur tushunchaning ma'naviy va ijtimoiy poydevori aniq shakllantirilgan. Vatanparvar shaxs qiyofasi, asosan, adolat, mas'uliyat, xavfsizlikni ta'minlash, jamiyat manfaatini himoya qilish va fidoyilik kabi fazilatlar orqali izohlanadi.

Qur'on Karim insonni "yer yuzida xalifa" sifatida tavsiflaydi. Uning zimmasiga jamiyat va muhitning tinchligi, tartiboti va adolatini saqlash burchini yuklaydi. "Ma'rufga buyurish va munkardan qaytarish" haqidagi oyatlar insonning jamiyat oldidagi mas'uliyatini belgilab, Vatanning ma'naviy barqarorligiga xizmat qilishni farz sifatida ifoda etadi. Shu bilan birga, "yer yuzida buzg'unchilik qilmanglar" oyati jamiyat xavfsizligi va jamoat tartibotini saqlashni vatanparvarlik mazmunining ajralmas qismi sifatida izohlaydi.

Payg'ambar alayhissalomning "Musulmonlar bir tan kabidir" degan hadisi jamoat birdamligi, bir-biriga mehr-shafqat va jamiyat manfaatini himoya qilishni inson fazilatlarini sifatida talqin qiladi. "Kim bir kishidan ozorni ketkazsa, Alloh uning mushkulini oson qiladi" degan hadis davlat xavfsizligi va foydali amalga undaydi. Mazkur mazmun himoya, tartibot va jamoat manfaatini ta'minlashga qaratilgan fidoyilikni vatanparvarlikning amaliy fazilati sifatida talqin qiladi.

Fiqhdagi "maslaha" (jamoat manfaati) tamoyili har bir amalning foydali yo zararli ekanligini jamiyatning umumiy ravnaqi nuqtai nazaridan talqin qiladi. Shu bois, ijtimoiy tartibotni saqlash, xavfsizlikka e'tibor qaratish va davlat barqarorligini ta'minlash fiqhiy jihatdan vatanparvarlikka xos fazilatlar sifatida baholanadi. "Omonatni egalari qaytaringlar" kabi oyatlarning huquqiy talqinida davlatga, xalq manfaatiga va jamoat mulkiga qaltis munosabatdan saqlanish shaxsning burchi sifatida izohlanadi.

Ha, vatanparvarlik mustaqillik bilan chambarchas bog'langandir. Bular bir-birini to'ldirsagina shaxs ma'naviyati etuk hisoblanadi. Ma'naviyat, xulqni yaxshilash va yuksak darajaga ko'tarish, Vatan tuyg'usini mustahkamlash bilan hamohangdir. Zero, Vatan va xalq oldidagi vazifani anglash yuksak ma'naviyat belgisidir. Darhaqiqat, ma'naviyat va ma'rifatda kuch-qudrat mujassamlashgan. Ma'naviy jihatdan etuk bo'lmagan shaxs o'z Vatanning nima ekanini anglab etmaydi. Ushbu jihatni anglamagan shaxs, o'zini ham anglamaydi. Vatanparvarlik inson ma'naviyati bilan bog'langan. Sababi ma'naviyat ham o'z tarixiga ega. U tarixiy madaniyatimizga, merosimizga borib taqaladiki, birinchi navbatda mazkur jarayonni ham unutmashimiz lozim. "Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi". Demak, vatanparvarlik ma'naviy xislatlar bilan bir butunning ikki qismidir.

XULOSA

Vatanparvar shaxsni shakllantirish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlik nafaqat milliy tuyg'u, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas'uliyati bilan chambarchas bog'liq murakkab ijtimoiy-psixologik fenomendir. Vatanparvar shaxsning ijtimoiy qiyofasi uning milliy o'zligiga sadoqati, jamiyat manfaatlari uchun xizmat qilishga tayyorligi, yuksak ma'naviyat va barqaror hayotiy pozitsiyasi orqali namoyon bo'ladi. Vatanparvar shaxsni tarbiyalash tizimli yondashuvni, ta'lim va tarbiya muassasalari, oila, jamoat tashkilotlari va media maydon hamkorligini talab etadi. Faqat shu holdagina jamiyatning milliy birdamligi, ma'naviy yuksalishi va barqaror rivojlanishi ta'minlanishi mumkin. Mazkur tadqiqot vatanparvarlikni shaxsiy va ijtimoiy qadriyat sifatida yanada chuqur o'rganish va uni amaliy hayotga tatbiq etish bo'yicha yangi ilmiy izlanishlarga asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Назаров Қ. Жамият ва маънавият. – Тошкент : Фан, 2019. – 220 б.
2. Ш.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимишни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 229.
3. Аристотель. Политика. – Москва : Мысль, 1997. – С. 56–61.
4. Платон. Государство. – Москва : Мысль, 1994. – С. 102–118.
5. Cicero M.T. De Officiis. – Cambridge: Harvard University Press, 1991. – P. 12–27.
6. Қуръони Карим. Бақара сураси, 30-оят.

ILMIY AXBOROT

7. Қуръони Карим. Оли Имрон сураси, 104-оят.
8. Қуръони Карим. Бақара сураси, 205-оят.
9. Саҳиҳ Муслим. Китоб ал-Бирр ва-с-Сила.
10. Ғазолий А. Ал-Мустасфа мин илм усул. – Қоҳира : Дор ал-Маариф, 1983. – Б. 112–119.
11. Қуръони Карим. Нисо сураси, 58-оят.
12. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
13. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/ Urganch – 3.2023. 19-21.
14. Ахматқулов У. Ватанпарварлик, инсонпарварлик ва ўз миллатига садоқат, шахс маънавияти муҳим мезонлари // "Мировая наука" №10(67) 2022
15. [https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Xamsa.%20Hayratul-abror%20\(nazm\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Xamsa.%20Hayratul-abror%20(nazm).pdf).